

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARDA PEDAGOGIK MAXORATINI VIRTUAL TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA RIVOJLANTIRISHDA XORIJ TAJRIBASI

Raximov Baxtiyor Xudoyberdiyevich

Pedagogika fanlari doktori, professor

Suvonqulova Aziza Abdurazzoqovna

Guliston davlat universiteti 1-bosqich tayanch doktoranti

Anontatsiya: Mazkur maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining pedagogik mahoratini virtual texnologiyalar vositasida rivojlantirishning mazmuni, virtual ta'limning metodik imokoniyatlarini shakllantirishning mazmuni va vazifalari, Virtual ta'limning afzalliklari, qulayliklari. O'qv jarayoning samaradorligini oshirishda virtual ta'lim texnologiyasidan foydalanish jihatlari hususida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, o'qituvchi, pedagogik mahorat, virtual ta'lim texnologiyasi, virtual ta'lim muhiti, virtual o'quv muhiti, interaktivlik, virtual ta'lim jarayonini boshqaruvchi tizimlar.

Аннотация: В данной статье рассмотрено содержание развития педагогического мастерства будущих учителей начальных классов с помощью виртуальных технологий, содержание и задачи формирования методических возможностей виртуального образования, преимущества и удобства виртуального образования. Рассмотрены аспекты использования технологии виртуального образования для повышения эффективности образовательного процесса.

Ключевые слова: начальное образование, учитель, педагогическое мастерство, виртуальная образовательная технология, виртуальная образовательная среда, виртуальная образовательная среда, интерактивность, виртуальные системы управления образовательным процессом.

Annotation: In this article, the content of developing the pedagogical skills of future primary school teachers with the help of virtual technologies, the content and tasks of forming methodological possibilities of virtual education, the advantages and conveniences of virtual education. Aspects of using virtual education technology to increase the effectiveness of the educational process are considered.

Key words: primary education, teacher, pedagogical skill, virtual educational technology, virtual educational environment, virtual educational environment, interactivity, virtual educational process control systems.

Mamlakatimiz ta'lif tizimida innovatsion texnologiyalarga asoslangan ta'lif – tarbiya tizimini takomillashtirish uning milliy zaminini mustahkamlash ijtimoiy faol va malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashni jahon talablari darajasiga ko'tarishga yo'naltirilgan tadqiqotlar keng ko'lamda olib borilmoqda. Ta'lif tizimidagi sifat o'zgarishlari va yuqori samaradorlik, ularning jahon ta'lif talablari bilan mosligi va pedagoglarning kelgusi mehnat faoliyatlarida o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini qay darajada amaliyotga tatbiq qilinayotganligiga bevosita bog'liqdir. Ta'lif-tarbiyadagi sifat o'zgarishlar va yuqori samaradorlik mazkur sohaga ijobjiy yangilik kiritish natijasida ta'lifda sifat va samaradorlik ta'minlanib, pedagogik innovatsiya jarayoni vujudga keladi [3].

Pedagogik ta'lif tizimi zamon talablariga javob beradigan, bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy-innovatsion faoliyat olib borishga tayyorlash uchun zamonaviy o'qitish tizimining yangi, ilmiy asoslangan model va texnologiyalarini taklif qilgan holda taraqqiy etib bormoqda. Zamonaviy sharoitlarda tobora ortib borayotgan pedagogika sohasining maqomi va mazkur yo'nalishdagi malakali mutaxassislarga bo'lgan talabning ortib borishi, oliy pedagogik ta'lifning yaxlit tizimida ularning kasbiy-pedagogik tayyorgarligini zamon talablari darajasida modernizasiyalash zaruratini belgilaydi.

Oliy ta'lifda bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik – innovatsion faoliyatga tayyorgarligini takomillashtirish jarayoni uzluksiz ta'lif tizimini modernizatsiyalashning

umumiyligida qoidalariga asoslanadi. Ta'limni modernizatsiyalash g‘oyasining ishlab chiqilishi va uning zamonaviy ilmiy nashrlar hamda normativ hujjatlarda aks ettirilishi uning mohiyatini, oliy ta'limda amalga oshirishning yo‘nalishlari va yo‘llarini tushunish zarururligini anglatadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-sonli Qarori oliy ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish, mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasidagi ustuvor vazifalarga mos holda, kadrlar tayyorlashning ma’nomazmunini tubdan qayta ko‘rib chiqish, xalqaro standartlar darajasida oliy malakali mutaxassislar tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratish maqsadida qabul qilingan [2]. Pedagogika sohasini yangi sifat bosqichiga ko‘tarish sifatli soha mutaxassislarini tayyorlashning mazmuni va uslubini innovatsiyalarga asoslangan holda qayta qurishni talab qiladi. Buning uchun pedagogika sohasida bo‘lajak o‘qituvchilar tayyorlash tizimining mazmuni, dasturlarining tarkibiy tuzilishini davlat ta’limning mazkur bo‘g‘ini oldiga qo‘ygan talablari asosida takomillashtirish lozimligini ko‘rsatmoqda. Bo‘lajak mutaxassislarini innovatsion yondashuv asosida pedagogik amaliyotini takomillashtirish texnologiyasi oliy ta’lim muassasalari oldidagi muhim vazifalardan biridir.

Bugun mamlakatimiz ta’lim tizimida innovatsion texnologiyalarga asoslangan ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, ijtimoiy faol va malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashni jahon andozalari darajasiga chiqarish dolzarb masalalardan biridir. Ta’lim sohasidagi sifat o‘zgarishlari va yuqori samaradorlik ularning jahon ta’lim talablari bilan mosligi va pedagoglarning kelgusi mehnat faoliyatlarida o‘zlashtirgan kompetentsiyalari qay darajada amaliyotga tatbiq qilinayotganligiga bog‘liq. Bu haqda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi “2022–2026- yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-134- sonli Farmonining 7-bandida hamda 2022-yil 21-iyundagi “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-289-Qarorining 2-bandida pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari kunduzgi ta’lim

shaklida tahsil olayotgan 2-4- bosqich talabalari uchun haftalik o‘quv mashg‘ulotlari “4+2” tartibida, shu jumladan, darslarning 4 kuni oliy ta’lim muassasasida, 2 kuni maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida amaliyot o‘tash tartibida olib borilishini ta’minalash vazifasi ko‘rsatilgan.

Respublikamizda inson kapitalini mehnat bozori talablari asosida rivojlantirish, ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma’naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish asosiy strategik vazifalar sifatida belgilangan. Oliy pedagogik ta’lim muassasalarida ushbu muammolaming yechimini topishda “Pedagogik mahorat” chuqr o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Pedagogik mahorat nima? Uning mohiyati nimalardan iborat? Ularni egallash uchun nimalami bilish kerak? Hozirgi zamon pedagogikasi va psixologiyasi «pedagogik mahorat» tushunchasiga turlicha izoh beradi. Jumladan, “Pedagogik ensiklopediya”da ta’rif quyidagicha izohlangan: “O‘z kasbining mohir ustasi bo’lgan, yuksak darajada madaniyatli, o‘z fanini chuqr biladigan, yondash fanlar sohalarini yaxshi tahlil eta oladigan, tarbiyalash va o‘qitish uslubiyatini mukammal egallagan mutaxassis”.

Pedagogik qobiliyatga ega bo’lish, pedagogik texnika sirlarini puxta egallash, barcha kasblar orasida o‘qituvchilik kasbi o‘zgacha va muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Zero, o‘qituvchi yosh avlod qalbi kamolotining memori, yoshlarga ta’lim-tarbiya beruvchi insondir. Bugungi kunda u voshlarni g‘oyaviv-siyosiy jihatdan chiniqtirib tabiat, jamiyat, ijtimoiy hayot, tafakkur taraqqiyoti qonuniyatlarini o‘rgatadi, yoshlani mehnat faoliyatiga tayyorlab, kasb-hunar sirlarini puxta egallashlarida ko‘maklashadi va jamiyat uchun muhim bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlarni hal etadi. Ana shu mas’uliyat o‘qituvchidan o‘z kasbining mohir ustasi bo‘lishni, o‘quvchilarga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatib, ularning qiziqishi, qobilivati, iste’dodi, e’tiqodi va amaliy ko‘nikmalarini har tomonlama rivojlantirish yo’llarini izlab topadigan kasb egasi bo‘lishni talab etadi.

Buning uchun doimo o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini, ko’nikma va malakalarini oshirib borish, ularga har tomonlama g‘amxo‘rlik qilish, zarur shart-sharoitlar yaratish, kerakli moddiy va ilmiy-metodik hamda texnik yordam ko‘rsatish, o‘qituvchilarning ijodiy tashabbuskorligini muntazam oshirib borishga ko’maklashish lozim. Shunga asosan, talabalardan o‘z kasbini, mutaxassisligini yaxshi biladigan mahoratli va mas’ulyatli kadrlarni tayyorlash muhim axamiyatga ega.

Talabalarни pedagogik mahoratini shakllantirish avvolo o‘qituvchilar va tarbiyachilarga pedagogik ijodkorlik, pedagogik texnika, ta’lim-tarbiya jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro hamkorligi, muloqot olib borish taktikasi, nutq madaniyati, tafakkuri, tarbiyachining ma’naviy-ma’rifiy va tarbiyaviy ishlarini tashkil etish va amalga oshirish, bu jarayonda xulq-atvomi va hissiyotni jilovlay olish xususiyatlarini o’rgatadi. O‘z kasbini rivojlantirib boruvchi pedagogik faoliyatlar tizimi to‘g‘risida ma’lumotlar beradi. Pedagogik faoliyat yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash uchun jamiyat oldida, davlat oldida javob beradigan, ta’lim-tarbiya berishda maxsus tayyorlangan o‘qituvchilar mehnati faoliyatidir. O‘qituvchilarning pedagogik faoliyati samarali bo‘lishi uchun zarur bo‘lgan qobiliyatlar tizimini: bilim, bolani tushuna olish, kuzatuvchanlik, nutq malakasi, tashkilotchilik, kelajakni ko‘ra bilish, diqqatni taqsimlab olish, vaziyatni to‘g‘ri baholash, yuzaga kelish ehtimol bo‘lgan har xil ziddiyatlami o‘z vaqtida bartaraf etish, o‘quvchilar bilim olishga qiziqtirish kabilar tashkil etadi.

Talabalar an’anaviy usuldagи har qanday ta’limga qaraganda ancha boy va murakkabroq bo‘lgan yangi aloqa vositalari tomonidan yaratilgan “o‘ziga xos” bilim maydonida yashaydilar. Axborotlashuv ustuvorliklarining paydo bo‘lishi bilan virtual ta’lim asta-sekin o‘z-o‘zini tarbiyalashga qaytishi mumkin. Multimedia ta’lim mahsulotlarini joriy etish nafaqat ta’lim muassasalari tomonidan amalga oshiriladi, shuning uchun o‘quv jarayoni bevosita ijtimoiy muassasadan tashqarida, balki “kompyuter bilan” yakka tartibda amalga oshirilishi mumkin. Virtual ta’lim masofaviy ta’lim bilan chambarchas bog‘liq, lekin u bilan cheklanib qolmaydi. U o‘qituvchilar,

talabalar va o‘rganilayotgan ob’ektlarning odatiy yuzma-yuz muloqotida paydo bo‘lishi mumkin (va sodir bo‘ladi). Masofaviy ta’lim texnologiyalari talabalar, o‘qituvchilar, mutaxassislar va bir-biridan uzoqda joylashgan axborot majmualarining o‘zaro foydalanish imkoniyatini oshirish orqali kunduzgi ta’limimkoniyatlarini kengaytirish imkonini beradi. Virtual ta’limning, shuningdek, umuman insonni tarbiyalashning asosiy maqsadi - insonning real dunyoda o’z taqdirini, shu jumladan virtual tarkibiy qismini aniqlash va unga erishishdir.

Virtual ta’limdeganda nafaqat masofaviy telekommunikatsiya ta’limi, balki “ta’lim sub’ektlari va ob’ektlarining o‘zaro ta“siri jarayoni va natijasi, ularni yaratish bilan birga, o‘ziga xosligi ushbu ob’ektlar va sub’ektlar tomonidan aniq belgilanadi”

Virtual ta’limsohasi - tashqi dunyoga keng tarqalib, hissiy, intellektual va intellektual qobiliyatini ishlataladigan o‘quvchining faoliyati orqali o‘zining tashqi sohalarini kashf eta oladigan makondir. ‘

- Bu o‘quv jarayonining barcha ishtirokchilari tomonidan ta’lim maqsadlarida tashkil etilgan va foydalilanadigan mahalliy, korporativ va global kompyuter tarmoqlarining axborot mazmuni va kommunikativ imkoniyatlarini o‘z ichiga oladi;

- O‘quv jarayonining barcha ishtirokchilarini samarali muloqot qilish uchun yaratilgan va ishlab chiqilgan;

Ta’lim olishning an’anaviy usullaridan farqli o‘laroq, ta’lim kommunikatsiyaning tabiat, bilvosita, ham uzoq, ham an’anaviy tarzda “ko‘zdan-ko‘zga” olib boriladi. Virtual ta’lim muhiti tezkor o’sib borayotgan, ko‘p bosqichli va ko‘p funksional tizimni birlashtiradi:

1) asinxron individual ta’limning ochiq modeli doirasida o‘quv jarayonida ishtirokchilarning o‘zaro aloqalariga xos innovatsion va an’anaviy texnologiyalar; 2) axborot resurslari: ma’lumotlar bazalari va ma’lumotlar, kutubxonalar, elektron o‘quv materiallari va h.;

3) zamonaviy dasturiy ta’minot: dasturiy ta’minot kabinalari, elektron aloqa.

Virtual ta'lismuhitining afzalliklari: O'quvchi moslashuvchanligi quyidagicha ko'rsatib o'tilgan:

- Barchasi trenajor Internet texnologiyalari orqali amalga oshirilganligi uchun qulay joyga joylashadi;
- O'quvchilar ta'lismuassasalariga joylashtirilishidan masofa samarali o'quv jarayoni uchun to'sqinlik qilmaydi;
- O'zлari uchun qulay vaqtida qatnashadi. Har bir inson o'z biologik "soatiga" ega va ularga qarab sinflar vaqtini tanlashi va o'zgartirishi mumkin;
- O'z didaktikasini qurish orqali o'tilgan nazariy va amaliy mashg'ulot jarayonlarini qayta ko'rib chiqadi, avvalgi darslardagi saqlangan materiallarga murojaat qila oladi va o'qituvchi bilan virtual makon orqali bog'lana oladi;
- Muayyan bo'limlarga konsentratsiyalash, har bir bo'limni, modulni va zarur bo'lgan vaqtini blokirovkalash. Shunday qilib, uni tezroq qilish orqali vaqtini tejash mumkin;
- O'quv mashg'ulotlarini amalga oshirish uchun talaba va ta'lismiz tizimining xarajatlari ta'lismohasi, vaqt va texnik resurslardan samarali foydalanish maqsadida kamayadi.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, pedagogik ta'lismiz tizimi, zamon talablariga javob beradigan, bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy-innovatsion faoliyat olib borishga tayyorlash uchun zamonaviy o'qitish tizimining yangi, ilmiy asoslangan model va texnologiyalarini taklif qilgan holda taraqqiy etib bormoqda. Zamonaviy sharoitlarda tobora ortib borayotgan pedagogika sohasining maqomi va mazkur yo'nalishdagi malakali mutaxassislarga bo'lgan talabning ortib borishi, oliy pedagogik ta'limga yaxlit tizimida ularning kasbiy-pedagogik tayyorgarligini zamon talablari darajasida modernizasiyalash zaruratini belgilaydi. Oliy ta'linda bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik – innovatsion faoliyatga tayyorgarligini takomillashtirish jarayoni uzluksiz ta'lismiz tizimini modernizatsiyalashning umumiy qoidalariga asoslanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun. O‘RQ-637сон. 2020-yil 23-sentabr.<https://lex.uz/>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldag‘i “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni //O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 6-son, 70-modda
3. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni, Qonun xujjatlari to‘plami milliy bazasi, <https://lex.uz/>
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydag‘i “2022– 2026-yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-134-sonli Farmoni (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 11.05.2022-y., 06/22/134/0407-son)
5. Hamidov J.A. “Using multimedia technology problems in professional education”. Eastern European Scientific Journal/Auris – Verlag.de 2019, № 1. 187-190 ctp.
6. Abduqodirov A.A., Pardayev A.X. Masofali o’qitish nazariyasi va amaliyoti. Monografiya. T.: Fan. 2009. -146 b.
7. Abduqodirov A.A., Toshtemirov D.E. Ta’lim muassasalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish metodikasi. Monografiya. Guliston: “Universitet”, 2019. - 232 b.